



2021- yil yanvar-iyun oylarida  
Qashqadaryo viloyatida  
xizmatlar sohasining  
rivojlanishi

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Rivojlangan mamlakatlardagi xizmatlar sohasi iqtisodiyotda yetakchi o'rinni tutadi, uning rivojlanish darajasi esa odamlarning farovonligi va hayot sifatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish bugungi kunda yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishni nazarda tutadi.

**Jami**

**Aholi jon boshiga**



**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdag'i xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 930,2** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 318,8** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **117,4 %** ni tashkil etdi.

### **Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)**

**5 930,2mlrd.  
so'm**

**117,4 %**

**1 318,8  
mlrd. so'mga**

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

<b>Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)</b>	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</b>
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>5930,2</b>	<b>117,4</b>
<b>shu jumladan:</b>		
<b>Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari</b>	<b>281,3</b>	<b>119,9</b>
<b>Moliyaviy xizmatlar</b>	<b>1014,6</b>	<b>130,5</b>
<b>Transport xizmatlari</b>	<b>1260,7</b>	<b>112,8</b>
<b>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</b>	<b>1210,6</b>	<b>111,7</b>
<b>Yashash va ovqatlanish xizmatlari</b>	<b>157,9</b>	<b>103,5</b>
<b>Savdo xizmatlari</b>	<b>1893,9</b>	<b>108,7</b>
<b>Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar</b>	<b>156,3</b>	<b>122,4</b>
<b>Ta'lim sohasidagi xizmatlar</b>	<b>250,2</b>	<b>157,6</b>
<b>Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar</b>	<b>79,0</b>	<b>118,7</b>
<b>Ijara xizmatlari</b>	<b>162,6</b>	<b>123,4</b>
<b>Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar</b>	<b>198,9</b>	<b>121,4</b>
<b>Shaxsiy xizmatlar</b>	<b>197,6</b>	<b>120,3</b>
<b>Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar</b>	<b>72,0</b>	<b>109,0</b>
<b>Boshqa xizmatlar</b>	<b>205,2</b>	<b>128,8</b>


*2021- yil yanvar-iyun*

*Dastlabki ma'lumotlar*

## *Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi*

### *Nisbatan yuqori ko'rsatkich*

#### *Nisbatan past ko'rsatkich*



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **31,9 %** ni tashkil etdi.

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,2 %** ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari umumiyligi hajmning **33,8 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida Me'morchilik sohasidagi bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,3 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoxda.


2021- yil yanvar-iyun oylarida yuqori o'sish ta'lim (**57,6 %**), moliyaviy xizmatlar (**30,5 %**), boshqa xizmatlar (**28,8 %**), ijara (**23,4 %**), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (**22,4 %**), qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi yashash va ovqatlanish xizmatlari (**3,5 %**) sohasida qayd etildi.

*2021- yil yanvar-iyun*

*Dastlabki ma'lumotlar*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlарining taqqoslanishi, % da**



**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **131,3 %.**

Boshqa xizmatlarda keskin pasayish kuzatilgan – **96,6 %.**

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **31,9 %** ni tashkil etib, bu esa **1 893,9 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **1 557,7 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmi hajmning **33,8 %** iga to'g'ri kelgan.

### **Savdo xizmatlari**

**1 557,7**

**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**

**1 893,9**

**101,2**

**O'sish sur'ati, % da**

**108,7**

**2020- y.  
yanvar-iyun**


**2021- y.  
yanvar-iyun**

**2021- yil yanvar-iyun**


**Dastlabki ma'lumotlar**

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i 85,4 % ini tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi  
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)**



**Avtomobillar  
va mototsikllar ulgurji  
va chakana savdosini,  
jumladan, ularni  
ta'mirlash xizmatlarini  
qo'shgan holda**



**Avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan  
tashqari chakana  
savdo bo'yicha  
xizmatlar**



**Ulgurji savdo  
xizmatlari  
(avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan  
tashqari)**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi 85,2 % ni tashkil etgan.

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### **Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-iyun oylarida)**

2021- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 014,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning hajmi **743,1** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yil yanvar-iyun oylarida ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi **17,1 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **16,1 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **271,5** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **30,5 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida ularning o'sish sur'ati **31,3 %** ni tashkil etgan.

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **87,0 %** ni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **7,7 %** ini tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarning ulushi **5,3 %** oraliq'ida qayd etildi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi  
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)**

**Sug'urta va nafaqa ta'minoti  
bo'yicha xizmatlardan tashqari  
moliyaviy xizmatlar**

**Yordamchi moliyaviy  
faoliyat**



**Sug'urta bo'yicha xizmatlar**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **90,8 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarning ulushi **4,3 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **4,9 %**.

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

### **Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-iyun oylarida)**

2021- yilning yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **281,3** mlrd. so'm darajasida belgilandi.


2020- yilga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sish sur'ati **119,9 %** ni tashkil etgan.

**Taqqoslash uchun:**  
2020- yil yanvar-iyun oylarida ushbu xizmat turi hajmi **232,8** mlrd. so'm yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmining **5,1 %** iga teng bo'lgan.

O'sish sur'ati esa **110,5 %** ni tashkil etgan.

**O'sish sur'ati**

#### **Hajmning o'sishi**



**Xizmatlar hajmi**


#### **Jami hajmdagi ulushi**

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi **97,0 %** ni tashkil etdi.

### **Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi**



**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **97,2 %** ni tashkil etgan.

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



2017-2021 yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lif va fan sohasini rivojlantirish – uzlusiz **ta'lif tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

### **Ta'lif sohasidagi xizmatlar**

2021- yil yanvar-iyun oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi **250,2** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi **4,2 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **157,6 %** ni tashkil etdi.



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-iyun oylarida xizmatlar hajmi **154,0** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan shu xizmat turida pasayish **1,5 %** darajasida qayd etilgan.

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

### **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**

**132,1  
mlrd. so'm**

**2020- y.  
yanvar-iyun**

**157,9  
mlrd. so'm**

**2021- y.  
yanvar-iyun**

**Xizmatlar hajmi**

**82,9 %**

**103,5 %**

**O'sish sur'ati**

2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **25,8 mlrd. so'mga** ortdi.

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi**

**2021- y. yanvar-iyun**

**Yashash bo'yicha  
xizmatlar**

**7,1 %**

**92,9 %**

**Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash bo'yicha  
xizmatlar**

**6,1 %**

**93,9%**

**2020- y. yanvar-iyun**

2021- yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **92,9 %** bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-iyun oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **93,9 %** ni tashkil etgan.

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

### **Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar**

**2021- y.  
yanvar-iyun**




**2020- y.  
yanvar-iyun**

**79,0  
mlrd. so'm**

**1,3 %**

**118,7 %**



**Xizmatlar  
hajmi**


**Xizmatlarning  
jami hajmidagi  
ulushi**

**O'sish  
sur'ati**

**60,6  
mlrd. so'm**

**1,3 %**

**96,4 %**



*2021- yil yanvar-iyun*

*Dastlabki ma'lumotlar*

Tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-iyun oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
<b>Qashqadaryo viloyati *</b>	<b>5930,2</b>	<b>117,4</b>	<b>102,7</b>
<b>Qarshi sh.</b>	<b>1904,3</b>	<b>115,1</b>	<b>106,4</b>
<b>Shahrisabz sh.</b>	<b>295,9</b>	<b>112,5</b>	<b>100,3</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>G'uzor</b>	<b>256,1</b>	<b>112,8</b>	<b>99,5</b>
<b>Dehqonobod</b>	<b>197,6</b>	<b>120,2</b>	<b>99,9</b>
<b>Qamashi</b>	<b>264,6</b>	<b>113,1</b>	<b>100,0</b>
<b>Qarshi</b>	<b>332,9</b>	<b>121,8</b>	<b>96,9</b>
<b>Koson</b>	<b>385,6</b>	<b>113,8</b>	<b>101,9</b>
<b>Kitob</b>	<b>393,3</b>	<b>114,4</b>	<b>101,1</b>
<b>Mirishkor</b>	<b>250,0</b>	<b>115,8</b>	<b>96,0</b>
<b>Muborak</b>	<b>307,9</b>	<b>112,5</b>	<b>98,3</b>
<b>Nishon</b>	<b>211,7</b>	<b>114,4</b>	<b>100,9</b>
<b>Kasbi</b>	<b>224,7</b>	<b>113,0</b>	<b>102,7</b>
<b>Chiroqchi</b>	<b>335,4</b>	<b>112,0</b>	<b>99,5</b>
<b>Shahrisabz</b>	<b>278,0</b>	<b>121,0</b>	<b>96,1</b>
<b>Yakkabog'</b>	<b>292,2</b>	<b>120,6</b>	<b>97,5</b>

\* tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda


**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

**Tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da  
(2021- yil yanvar-iyun oylarida)**



2021- yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi eng katta ulush – **32,1 %** (2020- yil yanvar-iyun oylarida – **50,3 %**)ni Qarshi shahri tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Dehqonobod tumanida – **3,3 %** (2020- yil yanvar-iyun oylarida – **2,4 %**) qayd etildi.

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

### **Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari**

#### **Xizmatlar hajmi**

**1 769,9  
ming so'm**



#### **Hajmning o'sishi**

**369,2  
ming so'mga**



#### **O'sish sur'ati**

2021- yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 769,9** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **115,4 %** ni tashkil etdi.

#### **Taqqoslash uchun:**

2020- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1400,7** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **97,9 %** da qayd etildi.

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2021- yilning 1- iyun holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

**Xizmatlar  
sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan  
korxona va  
tashkilotlar soni**

**2020- yilning  
mos davriga  
nisbatan  
o'sish sur'atlari**



**20 769  
birlik**



**4 295  
birlikga**



**126,1 %**

**58,3 %**

**2020- yilning  
mos davriga  
nisbatan ular  
sonining o'sishi**


**Ularning  
umumiyligi  
sonidagi  
ulushi**

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **58,3 %**, sanoat **13,0 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **19,0 %** ga yetdi. Qurilish sohasi ulushi esa **9,7 %** ga to'g'ri keldi.

**2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **60,6 %** ni, sanoat **13,4 %** ni, qurilish **11,7 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **14,3 %** ni tashkil etgan.

**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**

**2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni **(46,0 %)** egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **8,8 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **4,7 %** ga yetdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,0 %** ga teng bo'ldi.

Sog'lijni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **3,6 %** ni tashkil etdi.




**2021- yil yanvar-iyun**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

### Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **68,6 %** ni tashkil etdi.

### 2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **76,6 %** ga to'g'ri keldi.

